

**QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-soni)**



**IJTIMOY FANLAR
SOCIAL STUDIES**

YANGI O‘ZBEKISTONDA QISHLOQ XO‘JALIGI SOHASIDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH JARAYONLARI

**Nurullayeva Kuvonch Xudayberdiyevna,
Urganch innovatsion universiteti o‘qituvchisi.**

Annotatsiya: Maqlada O‘zbekiston Respublikasida milliy iqtisodiyotning rivojlanishida tadbirkorlikning tutgan o‘rni qishloq xo‘jaligi sohasida yuz berayotgan jarayonlar misolida tahlil qilingan. Unda O‘zbekiston Respublikasida taraqqiyotning yangi bosqichida qishloq xo‘jaligi sohasida mavjud imkoniyatlari, shart-sharoitlardan unumli foydalanish, sohada resurslarni samarali boshqarishga oid masalalar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, tadbirkorlik, qishloq xo‘jaligi, samaradorlik, agrotadbirkorlik, texnologiya.

ПРОЦЕССЫ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Аннотация: В статье анализируется роль предпринимательства в развитии национальной экономики Республики Узбекистан на примере процессов, происходящих в аграрном секторе. На нем были рассмотрены вопросы, связанные с эффективным использованием имеющихся возможностей и условий в аграрном секторе на новом этапе развития Республики Узбекистан, а также эффективным управлением ресурсами в отрасли.

Ключевые слова: Узбекистан, предпринимательство, сельское хозяйство, эффективность, агробизнес, технологии.

PROCESSES OF DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP IN AGRICULTURE IN NEW UZBEKISTAN

Abstract: The article analyzes the role of entrepreneurship in the development of the national economy in the Republic of Uzbekistan using the example of processes taking place in the agricultural sector. It considers issues related to the effective use of existing opportunities and conditions in the agricultural sector at a new stage of development in the Republic of Uzbekistan, effective management of resources in the sector.

Keywords: Uzbekistan, entrepreneurship, agriculture, efficiency, agribusiness, technology.

Kirish.

O‘zbekiston Respublikasida milliy iqtisodiyotning rivojlanishi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishidagi mahsulotlarni sanoat asosida qayta ishlovchi kichik tadbirkorlikning o‘sishi, bozor islohotlari bilan parallel ravishda rivojlanmoqda. Bozor munosabatlariga o‘tish jarayonida tadbirkorlik shakllari aholini ish bilan ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Tadbirkorlikdagi xususiy tashabbuskorlik va omilkorlik, bugungi kunda iqtisodiy jarayonlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan hisoblanadi. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, har qanday bozor islohotining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Tadbirkorlikning iqtisodiy mohiyati va uning ahamiyatli jihatlaridan biri — uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushining doimiy o‘sishi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasida 2000-yilda bu ko‘rsatkich 31% bo‘lib, 2021-yilga kelib 54,2% ga yetdi, iqtisodiyotda band bo‘lgan aholi sonining 82 foizi tadbirkorlik sohasida ishlarloqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi hamda iqtisodiyotda band bo‘lgan aholining kichik tadbirkorlik subyektlaridagi ulushi respublika va viloyatlar bo‘yicha farq bilan rivojlanmoqda.

Agrosanoat majmuida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida bozor iqtisodiyotiga mos ravishda turli mulkchilik shakllariga asoslangan tadbirkorlik subyektlari tashkil topdi. Ba’zi mulk subyektlari xususiylashtirilib, xususiy-yakka va xususiy-jamoa tadbirkorlik shakllariga aylantirildi. Agrosanoat majmuining qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida avval jamoa (shirkat) xo‘jaliklari tashkil etilib, keyinchalik ularning tarkibida fermer xo‘jaliklari va dehqon xo‘jaliklari tashkil qilindi. Qishloq xo‘jaligi sohasida tadbirkorlik faoliyatiga faqat tadbirkorning bilim va tajribasi emas, balki davlat siyosati va qishloq xo‘jaligining o‘ziga xos xususiyatlari ham ta’sir qiladi. Bunga misol sifatida, qishloq xo‘jaligida mulkchilik shakllarining shakllanishi ta’sirini keltirish mumkin. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar, ishlab chiqarish hajmi va texnologik jihatdan yirik bo‘lganligi sababli, hissadorlik jamiyatlariga aylantirildi. Shu bilan birga, mazkur sohada faqat meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlovchi kichik tadbirkorlik subyektlari shakllandı.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tarixiy-qiyoslash usullari, statistik tadqiqot usuli, tizimlashtirishdan foydalanildi.

Tahlil va natijalar.

Zamonaviy ijtimoiy hayotda tadbirkorlikning amaliy ehtiyoji sezilmaydigan birorta faoliyat yo‘qdir. Tadbirkorlik, har bir mamlakat va uning hududlaridagi aniq iqtisodiy va demografik holatlarni hisobga olib rivojlanadi, shuningdek, tadbirkorlik rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy vazifalari bilan bog‘liqdir.

Keyingi yillarda mamlakatimiz qishloq xo‘jaligini isloh qilish, xususan sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlarini keng joriy qilish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlash, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq ho‘jaligi mahsulotlari ishlab

chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta’minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-yanvardagi “Fermer xo‘jaliklari va boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalari yerlarining meliorativ holatini yaxshilash hamda qishloq xo‘jaligi yerlaridan samarali foydalanish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi 14-sonli qarori asosida fermer xo‘jaliklarining yer maydonlari optimallashtirilib, qishloq xo‘jaligi korxonalari yer uchastkalarining o‘lchamlari ularning faoliyat sohasiga qarab belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.10.2019-yildagi PF-5853-son Farmoni bilan xalqaro tashkilotlar va ekspertlar ishtirokida ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi hamda O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xarita”si tasdiqlandi .

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasining asosiy maqsadi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan islohotlarni yanada chuqurlashtirishda davlat siyosatini tubdan takomillashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni qamrab oladi: aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash; qulay agrobiznes muhitini va qo‘silgan qiymat zanjirini yaratish; soha boshqaruvida davlat ishtirokinini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish; tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhit muhofazasini ta’minlash; davlat boshqaruvining zamonaviy tizimlarini rivojlantirish; tarmoqni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan davlat xarajatlarini bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilish; qishloq xo‘jaligida ilm-fan, ta’lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish; qishloq hududlarini rivojlantirish; tarmoq statistikasining shaffof tizimini ishlab chiqish .

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yil 5-oktabrda “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash hamda uni muvaffaqiyatli amalga oshirishga qaratilgan farmon qabul qilindi. Shu doirada, 2020-yil 17-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi agrosanoat majmui va qishloq xo‘jaligida raqamlashtirish tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 794-son qarori qabul qilindi. Ushbu farmon va qaror orqali iqtisodiyot, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvining raqamli rivojlanishiga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Elektron davlat xizmatlarini takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni kengroq qo‘llash uchun strategiya va “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqildi. Bu hujjatlarda elektron hukumat, raqamli industriya, raqamli ta’lim va infratuzilmalarni rivojlantirishga oid aniq chora-tadbirlar belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsadlardan biri tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va doimiy daromad manbalarini yaratish uchun sharoitlar yaratishdir. Shuningdek, xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80% ga va eksportdagि

ulushini 60% ga yetkazish, qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida ikki baravar oshirish, shuningdek, qishloq xo‘jaligi sohasining yillik o‘sishini 5% ga yetkazishdir.

Agrar sohada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga alohida e’tibor berilayotgani, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qishloq xo‘jaligi dunyo iqtisodiyotida eng muhim sohalardan biridir. Bu soha nafaqat oziq-ovqat bilan ta’minalash, balki aholi uchun ish o‘rnları yaratishda ham muhim rol o‘ynaydi. Tadbirkorlik va qishloq xo‘jaligi sohasidagi o‘zaro hamkorlik iqtisodiyotning barqarorlashuvini ta’minalashga, global iqtisodiy rivojlanishning bir qismi bo‘lishga yordam beradi. Ammo global iqtisodiy rivojlanishda qishloq xo‘jaligi o‘zining o‘ziga xos xususiyatlari va bu sohadagi muammolar tufayli bir qator to‘siqlarga duch keladi. Shuning uchun, yuqori samarali va raqobatbardosh tadbirkorlik faoliyatini shakllantirish zarur.

O‘zbekiston Respublikasida milliy iqtisodiyotning rivojlanishi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishidagi mahsulotlarni sanoat asosida qayta ishlovchi kichik tadbirkorlikning o‘sishi, bozor islohotlari bilan parallel ravishda rivojlanmoqda. Bozor munosabatlariga o‘tish jarayonida tadbirkorlik shakllari aholini ish bilan ta’minalashda muhim rol o‘ynaydi. Tadbirkorlikdagi xususiy tashabbuskorlik va omilkorlik, bugungi kunda iqtisodiy jarayonlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan hisoblanadi. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, har qanday bozor islohotining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Shu bilan birga, hozirgi kunda global miqyosda raqamli texnologiyalar tez sur’atlar bilan rivojlanib, inson faoliyatining barcha sohalarida foydalanish o‘sib bormoqda. O‘zbekistonda ham raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga katta e’tibor qaratilmoqda, shuningdek, agrar soha boshqaruv tizimida “Aqli qishloq xo‘jaligi” texnologiyalarini joriy etishning ahamiyati ortib bormoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlarini amalga oshirishga oid chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi kichik va xususiy tadbirkorlik korxonalarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi va ish bilan bandlikni ta’minalash darajasining ortishi, bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes va xususiy korxonalarning afzalliklarini, mamlakatning barqarorligini saqlashdagi ahamiyatini yanada kuchayishini ko‘rsatadi. Xususan, dunyo miqyosida aholining keng qismi kichik biznes sohasida faoliyat yuritadi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes va xususiy korxonalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi o‘rtasidagi farq 5-10 foizni tashkil etadi, O‘zbekiston esa ushbu ko‘rsatkichda 15-17 foiz farqni ko‘rsatmoqda . Respublikada va viloyatlar bo‘yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushlarining o‘zgarish doirasi yuqori emas. O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulotda qishloq xo‘jaligining ulushi kichik bo‘lsa-da, aholining 55 foizi qishloq hududlarida yashaydi. Shuning uchun qishloq xo‘jaligi sohasida tadbirkorlik faoliyatini chuqurlashtirish va takomillashtirish zaruratga aylangan.

Ishlab chiqilgan “Aqlli qishloq xo‘jaligi” texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha strategiya orqali, qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni keng joriy qilishga doir chora-tadbirlar belgilandi. Agrosanoat majmui tashkilotlarining xizmatlarini to‘liq elektron shaklga o‘tkazish, davlat-xususiy sheriklik asosida maqsadli loyihalarni amalga oshirish ishlari rejali tarzda amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasida “Aqlli qishloq xo‘jaligi” texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasi bir nechta Prezident farmonlari va qarorlari asosida shakllangan. Jumladan, Bu masalalarni hal etish uchun mamlakatimiz hukumati tomonidan bir qator hujjatlar qabul qilindi. Masalan, “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligining 2020–2030-yillarda rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Prezident farmonida qishloq xo‘jaligida ilm-fan, ta’lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan . SHuningdek, 2020-yil 28-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2020-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4575-son qarori va 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-4699-son qarorlari muhim sanaladi.

Yuqoridaqilarga tayanib, shuni ta’kidlash mumkinki, davlat va mahalliy hokimiyatlar tomonidan amalga oshirilayotgan demokratik jamiyat qurish, samarali faoliyat yurituvchi va xususiy mulkchilikka asoslangan bozor iqtisodiyotini yaratishga yo‘naltirilgan iqtisodiy siyosat, bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni o‘z ichiga olmoqda.

Ayniqsa, qishloq xo‘jaligi sohasida tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish va ish bilan bandlikni ko‘paytirish maqsadida viloyat va tumanlarda iqtisodiy hamda tashkiliy chora-tadbirlarni kuchaytirish zaruratga aylangan. Bundan tashqari, tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini va mavjud mehnat resurslarining harakatchanligini ta’minalash, ularning kasb malakalarini oshirish va mavjud tajribalarni saqlab qolish juda muhim. Shuni ta’kidlash joizki, “Agrar ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori asosida agrar sohadagi oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimi joriy etildi. Qishloq xo‘jaligi sohasidagi magistratura dasturining davomiyligi 1 yilga qisqartirilishi, shuningdek, sohada tajribaga ega xodimlarni o‘qishga tavsiya asosida qabul qilish, sirtqi ta’limni kengaytirish va to‘lov-kontraktga oid yengilliklar belgilangan.

Xulosa.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biri bo‘lib, mamlakatimiz hukumati ichki bozor va jahon bozorlari ehtiyojlari asosida rivojlanib boradigan an’anaviy qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishidan zamonaviy va samarali agrobiznesga o‘tishni qo‘llab-quvvatlab kelmoqda.

Agrosanoat majmuida tadbirkorlik ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini saqlab qolgan holda, xususiy munosabatlар va ishlab chiqarish munosabatlarini o‘zida aks ettiradi. Bu jarayon ijtimoiy-iqtisodiy bog‘liqlikda rivojlanishni ta’minalaydi va yer, qishloq xo‘jaligining mavsumiyligi hamda tabiiy iqlim sharoitlari kabi omillarga asoslanadi. Agrosanoat majmuida

xususiy va jamoa mulkchiligiga asoslangan tadbirkorlik shakllandi. Xususiy tadbirkorlik, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish sohasida hamda qayta ishlash sohasida kichik korxonalar va yakka tadbirkorlik subyektlari rivojlanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 23.10.2019 yildagi PF-5853-son. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 28.01.2020 yildagi PQ-4575-son. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2020-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 30.07.2020 yildagi PQ-4795-son. Agrar ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son. 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 30.07.2020 yildagi PQ-4795-son. Agrar ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
- 7.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 30.10.2003 yildagi 476-son. 2004 — 2006-yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 09.01.2019 yildagi 14-son. Fermer xo‘jaliklari va boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalari yer maydonlarini maqbullashtirish hamda qishloq xo‘jaligi ekin yerlaridan samarali foydalanishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida.
- 9.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 17.12.2020 yildagi 796-son. O‘zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida.
10. Qurbonov A., Maxmutullayeva S. Agrar sohada tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘nalishlari // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. №2, 2022. - B. 281-290.
11. Rustam Hasanov, Darya Ilina. Qishloq xo‘jaligi tadbirkorligini rivojlantirish: Fermerlarni rag‘batlantirish kafolatlari. <https://kknews.uz/oz/113300.html>
12. www.stat.uz materiallari